

QUYOSHING DOIMO PORLASIN, QUYOSHCHAM!

Karimova Jahona

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universeti 2-kurs talabasi
Jahonakarimova1707@gmail.com
+998937878776

Quyoshli bolajon - ajoyib atama to'g'rimi? Qanday bola o'zi quyoshli?! Quyoshdek nur sochadimi? Ha, u quyoshdek nur sochadi, mehr nuri ila sochadi. Bu quyoshli bolajonni men ajoyib loyiha orqali bildim. Hayotim davomida bunday atamani ham, bunday bolajonni ham uchratmagan ekanman. To'g'rirog'i, uchratsam ham e'tibor qilmagan ekanman. Sizga aytmoqchi bo'lgan loyiham meni shunday o'ziga tortdiki, bu loyihadan uzoqlashishga imkon ham, hoxish ham qolmadi. Qisqa qilib aytadigan bo'lsam quyoshli bolajon shunday o'ziga ipsiz bog'ladiki, uni o'ylamagan kunim yo'q. Loyiha prezidenti (asoschisi) Hilola To'xtamurodova bilan bir tanlovda tanishdik. Tanishuv jarayonida bu loyiha haqida eshitdim, ammo e'tibor qilmadim. Keyin yana bir tasodif bilan Hilola To'xtamurodova bilan uchrashdik. Suhbat davomida loyiha haqida gap ketdi. Oldin ham eshitgan ekanman, faqat bu loyihani asoschisini o'zga bir inson deb bilardim. Suhbat davomida ko'p narsaga aniqlik kirdi. Men o'sha kuni o'zim uchun yangi Hilolani kashf qildim. Shunday loyiha – dunyo tan olib turgan loyihaning asoschisi bo'la turib, men loyiha asoschisiman deb maqtanishni o'ziga ep ko'rмаган insonni quyoshli bolajonning haqiqiy ustoz deb atash mumkin (Hilola To'xtamurodova haqida boshqa maqolalarimda bat afsil yoritaman).

Sizlarga aytayotgan loyiham "DUNYO SEN BILAN" deb nomlangan. Bu loyihaning kelib chiqish tarixi bor! Hilola To'xtamurodova hunarmandlikka qiziquvchan havaskor hunarmand edi. Bu qiziqish uni tinmay izlanishaga chorlagan. Hozirda Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat universitetining 3-bosqich talabasi. Hunarmandchilikka qiziqish orqasidan Hilola To'xtamurodova 2017-yildan boshlab, Barkamol avlod markazida bolalarga hunar o'rgatishni boshlaydi. Yosh ustozning oldiga bir ayol kelib murojaat qiladi. Qizini olib kelishini, unga ham hunar o'rgatishini iltimos qiladi va bu orada muammo borligini aytadi. Yosh ustozning qanday muammo bor degan savoliga qizim – Quyoshli deb nomlangan javob bo'ladi. U paytda Hilola To'xtamurodova "Quyoshli bolajon" haqida ma'lumotga ega emas edi. Shundan so'ng u internetga yuzlanib "Quyoshli bolajonlar" haqida ma'lumot yig'ib, jismoniy hamda ruhiy holatini o'rganishga kirishadi. Boshqa o'quvchilaridan farqli shogirtini barcha jihatlari bilan qa'b ul qilib, bilganlarini o'rgata boshlaydi. Dars jarayoni davomida birgalikda rasm chizishadi, rasmni bo'yash esa keying darsda esa rasm bo'yalgan holatda edi. Buni ko'rgan yosh ustoz lol qoladi, sababi u qilgan ishini ustoz o'rgatmagan edi (plastilinni eritib, rasmini bo'yaydi va mayda toshlarni yopishtirib bezab chiqadi). Ustoz bu ishda ham fantaziyani, ham mayda va matorikani rivojlanganini ko'radi. Qizaloq ustoz yoniga ilkbor kelganida hatto qalam ushlashni ham bilmasdi. Natijani qisqa muddatda ko'rgan Hilola To'xtamurodova ijtimoiy loyiha qo'l uradi va "DUNYO SEN BILAN" loyihasiga asos soladi. Loyiha Xalqaro tanlovda g'olib tolib, 3 000 evro grant pul ajratiladi. Grand mablag'iga esa Toshkent shahrida kichkinagina markaz ochadi va 15 ta quyoshli bolajonga hunar o'rgatildi. Albatta bu markaz o'z natijasini ko'rsatdi. Quyoshli bolajon Xalqaro tanlovda 1- o'rin sohibasi bo'ldi. Hatto gapirishni bilmaydigan bolajon ham so'zlashni o'rgandi va ilk yod olgan she'ri O'zbekiston madhiyasi bo'ldi. Loyiha nafaqat Toshkent shahrida balki butun O'zbekiston bo'ylab davom etmoqda. Ushbu loyiha davomida loyiha asoschisi Hilola To'xtamurodova bilan birgalikda bir nechta viloyatlarga safarga chiqdim. Safar davomida biz ularga berganimizdan ko'ra, quyoshchalardan oorganimiz ko'proq bo'ldi, menimcha. Shaxsan o'zim quyoshchalardan ko'p narsani o'rgandim. Hayotdan doim yaxshilikni izlovchi quyoshchalar davrasida ajoyib voqealar guvohi bo'ldim. Ular haqidagi qissqacha ma'lumotni sizlar bilan bo'lishmoqchiman.

Quyosh va yomg'ir bolalari: ular dunyonи qanday ko'rishadi.

Ular ko'zingizga tik boqishmaydi, kamdan-kam kulishadi. Atrofga befarqdek, lekin ularda katta iste'dodlar yashirin. Ular – yomg'ir bolalari.

Ular juda mehribon, samimiylar va oq ko'ngil. Hech qachon yolg'on gapishtirishmaydi, hammani birdek ko'rishadi. O'z olamida yashashadi. Ular – quyosh bolalari.

Autizm va Daun sindromi – ruhiy imkoniyati cheklanganlikning eng ko'p uchraydigan shakllaridan biridir. Bunday tashxis qo'yilganlar ko'pincha o'z olamida yashaydi, o'ziga xosligi bois jamiyatdan uzilib qoladi. Ammo yakkalanib qolish yoki faqatgina o'ziga o'xshaganlarning qurshovida qolish Daun sindromi va autizmning yanada og'irlashishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shu bois imkoniyati cheklanganlarni ijtimoiy hayotga moslashtirish haqida ko'p gapiriladi. Lekin jamiyat ularning huquqlari va hissiyotlariga daxl qilmagan holda mulaqotga kirishishga tayyormi?

Ruhiy imkoniyati cheklangan insonlar bilan muloqotda uniing nimalarni his etishi, sizni, dunyoni qanday ko'rishni bilish muhim. Ular g'ayriodatiy harakatlarga nima sabab bo'lismeni bilish uni tushunish va g'amxo'rlik qilishda birinchi qadam bo'ladi.

Autistik spektrda buzilishlar bilan kechuvchi sindrom- autiz bolaning hayotga moslasha olmasligi bilan kechadi. Bu kasallik emas, ularning eng asosiy o'ziga xosligi shundaki, reallikni boshqacha ko'radi, eshitadi, sezadi.

Ular odatda iqtidorli, ijodkor bo'lismeni bilan kechuvchi sindrom- autiz bolaning hayotga moslasha olmasligi bilan kechadi. Shu bois, ham yomg'ir bolalari deb nom berilgan.

Quyosh bolalari – Xrosomalar sonining odatdagidek 46 ta emas, 47 ta bo'lismeni bilan kechuvchi Daun sindromi bolaning nafaqat ruhiy holati, balki tashqi ko'rinishida ham aniq belgilar bilan namoyon bo'ladi. Doim ochiq chehrada bo'lismeni, mehribonligi uchun ham ularni quyosh bolalari deb atashadi.

Daun sindromi bo'lgan bolalarda tashqi belgilar: yuzining yassiligi, ko'z qisiqligi, ko'zlar orasining uzoqligi, burun va qulquning nisbatan kichikligi namoyon bo'ladi.

Quyosh bolalari autistlardan farqli ravishda jamiyat bilan birga bo'lismeni intiladi. Bunda unga ko'maklashish va uning o'ziga xosligini inobatga olish kerak. Ma'lumotlarni qa'bul qilish qiyin kechadi. Aqliy rivojlanishning sekinligi bois Daun sindromi bo'lgan bolalar ma'lumotni, yangi ko'nikmani tengdoshlariga qaraganda ancha uzoq va murakkab o'zlashtiradi.

Fikrni yetkazishda ham gapni imkon qadar sodda va tushunarli qilib, bir necha bor takrorlab aytish kerak. Ular hamma narsa ko'ngildagidek bo'lismeni istashadi. Uyni qanday saranjomlash tushuntirilgan bola tartibsiz xonaga kirib qolsa, bezovtalana boshlashi mumkin. Chunki unga xona toza bo'lismeni kerakligi uqtirilgan va u doim shunday bo'lismeni kerak deb o'ylaydi. U doim ovqatdan keyin idishni yig'ishtirib qo'yishga odatlangan bo'lsa, bunga imkon bo'lmay qolganda asabiylashishi, hatto yig'lashi ham mumkin. Ular doim suyanchni his qilishlari lozim. Daun sindromi bo'lgan shaxs bilan muttasil ishlab, ijtimoiy hayotga moslashtirgan taqdirda ham, ular doimiy suyanch va mehrga ehtiyoj his qilishadi. Otasi, onasi yoki doimiy o'rganib qolgan kishisi oldida bo'lmasa, o'zini ishonch sиз his qiladi. Shuning uchun ulardan mustaqillikni talab qilish noo'rin. Mavhum tushunchalarni qabul qilish qiyin. U fikrni ilg'ab olishga qiynaladi, shu bois real misol bilan gapirgan ma'qul. Undan halinchakda uchishni istaysanmi deb so'ragandan ko'ra, halinchakni ko'rsatish yaxshiroq. Uni biron narsani tanlashga undash kerak emas. Qanaqa shirinlik yeyishni istaysan, deb emas, shokaland olib beraymi, deb so'rash to'g'riroq bo'ladi. Eng muhimi – sabr. Quyosh bolalari o'z fikrini yetkazib berishga qiynalishi, jumlalarni uzoq takrorlashi mumkin. Bu paytda uni shoshirmaslik, sabr va diqqat bilan tinglayotganingizni ko'rsatish kerak.

Ularga ham barchamizga bo'lganidek e'tibor, mehr va g'amxo'rlik kerak.